

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 204 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	



JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI

Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich

“Alfraganus University” NOTT rektori, i.f.f.d. (PhD), dotsent

ORCID: 0009-0006-3676-5349

E-mail: a.ismailov@afu.uz

Annotatsiya. Maqolada hozirgi kunda jahonda kreativ iqtisodiyotning rivojlanishiga oid umumiy global tendensiyalar aniqlangan. Kreativ iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi o'zgarib borishi hamda bandlik darajasidagi ahamiyatining ortib borish tendensiyalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kreativ iqtisodiyot, raqamli kreativ, bandlik, daromad, ko'ngilochar va media sanoati.

Abstract. This article identifies general global trends in the development of the creative economy in the modern world. It analyzes the changing role of the creative economy in a country's gross domestic product and its increasing importance in employment.

Keywords: creative economy, digital creativity, employment, income, entertainment and media industry.

Аннотация. В статье выявлены общие глобальные тенденции развития креативной экономики в современном мире. Проанализированы тенденции изменения роли креативной экономики в валовом внутреннем продукте страны и повышения её значимости в уровне занятости.

Ключевые слова: креативная экономика, цифровой креатив, занятость, доход, индустрия развлечений и медиа.

KIRISH

Kreativ iqtisodiyot asosiy manba sifatida ijodkorlik va intellektual kapitaldan foydalanadigan tovar hamda xizmatlarni yaratish, ishlab chiqarish va tarqatishni o'z ichiga oladi. U reklama, arxitektura, san'at, dizayn, musiqa, kino ishlab chiqarish, nashriyot va video o'yinlar kabi turli faoliyat turlarini qamrab oladi. Bunyodkorlik iqtisodiyoti iqtisodiyotni rivojlantirish va diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini taqdim etuvchi soha sifatida jadal rivojlanmoqda. U madaniy hamda ijtimoiy qadriyatlarni yaratish bilan birga iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlari yaratish kabi maqsadlarni ham qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu sektor ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar uchun nihoyatda muhim sanaladi, biroq yaqinda o'tkazilgan [UNCTAD] so'rovi mamlakatlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatgan.

Raqamli kreativ tarkib kitoblar, filmlar, musiqa va video o'yinlar kabi an'anaviy jismoniy mahsulotlarning o'rnini tobora bosmoqda. Raqamlashtirish, shuningdek, oqim xizmatlari va raqamli platformalar kabi zamonaviy biznes modellarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa tarmoqlararo hamkorlikni (masalan, video o'yin kompaniyalari, musiqachilar, noshirlar va kinostudiyalar o'rtasida) kengaytiradi hamda geymifikatsiya jarayonlarini yanada rivojlantiradi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlardagi demografik o'zgarishlar, ayniqsa yosh avlodning raqamli kontentga bo'lgan talabining ortishi, kreativ sohalarning o'sishiga sezilarli turtki bermoqda.



Kreativ sohalar global va mintaqaviy miqyosda operatsiyalar, qiymat zanjirlari va daromad modellariidagi yuqori darajadagi o'zgaruvchanlik bilan ajralib turadi. Bu xilma-xillik bozor hajmini aniq baholashda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotlar sanoat daromadlari va sotuvlar kabi turli ko'rsatkichlardan foydalanadi, bu esa metodologiya va ma'lumotlar manbalaridagi nomuvofiqliklarga sabab bo'ladi hamda tahlil jarayonini murakkablashtiradi. Ushbu nomutanosibliklarni inobatga olgan holda, ba'zi kreativ tarmoqlar bo'yicha xalqaro tashkilotlarning batafsil global sanoat ma'lumotlari mavjud emasligi sababli, tahlillarda konsalting kompaniyalari, bozor tadqiqotlari firmalari hamda uyushmalarining so'nggi hisobotlaridan foydalanilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kreativ sohalar haqidagi ma'lumotlarning kamligi esa ushbu jarayonlarni chuqur o'rganish imkoniyatini cheklab qo'yadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ iqtisodiyotni rivojlanishidagi global tendensiyalar ijodkorlik siyosatini qayta shakllantirishga bag'ishlangan UNESCO hisobotlarida¹, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining madaniy va ijodiy sohalarining iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri bo'yicha hisobotda², Xalqaro mehnat tashkilotining san'at va ko'ngilochar sektordagi ish³ bo'yicha hisobotida, Birlashgan Millatlar Tashkilotining kreativ iqtisodiyot⁴ bo'yicha hisobotlarida, ko'ngilochar va media sanoatining istiqbollariga bag'ishlangan hisobotlarda⁵, hamda Xalqaro Mualliflar va Bastakorlar Jamiyatlari Konfederatsiyasining hisobotlarida⁶ chuqur tadqiq etilgandir.

Kreativ iqtisodiyot nazariy asoslarini ishlab chiqishda John Howkins muhim o'rin egallaydi. U o'zining "The Creative Economy: How People Make Money from Ideas" asarida ijodkorlik, innovatsiya va intellektual mulkning iqtisodiy qiymatga aylanish mexanizmini tahlil qilib, kreativ faoliyatning iqtisodiy o'sishdagi rolini asoslab bergan⁷. David Throsby esa "Economics and Culture" asarida madaniy va iqtisodiy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritib, madaniy siyosatning iqtisodiy modelga integratsiyalashuvini ilmiy asosda izohlagan⁸. Richard Florida o'zining "The Rise of the Creative Class" asarida kreativ sinfning shakllanishi, ularning shahar va mintaqaviy rivojlanishdagi o'rne hamda innovatsion muhitni yaratishdagi ta'sirini chuqur tahlil qilgan⁹.

UNESCO tomonidan chop etilgan "Creative Economy Report" hisobotlari global kreativ iqtisodiyotning o'sish dinamikasi, madaniy sohalarining YAIMdagi ulushi va mamlakatlar o'rtasidagi tafovutlarni keng miqyosda yoritadi¹⁰. Shuningdek, UNCTAD tomonidan 36 ta rivojlanayotgan mamlakatni qamrab olgan so'rov natijalari kreativ sohalarining iqtisodiy salohiyati, bandlik darajasi va qo'shilgan qiymat bo'yicha farqlarni ochib bergan¹¹. PwC kompaniyasining "Global Entertainment and Media Outlook 2023–2027" hisobotida esa raqamli xizmatlar, media va oqim platformalarining barqaror o'sishi, yangi monetizatsiya modellari shakllanishi va kreativ tarmoqlarning raqamli transformatsiyasi jarayonlari batafsil tahlil qilingan¹².

Xalqaro Mualliflar va Bastakorlar Jamiyatlari Konfederatsiyasi (CISAC) tomonidan tayyorlangan "Global Collections Report 2023" ma'lumotlariga ko'ra, jahon royalti yig'implari rekord darajaga yetgan bo'lib, raqamli oqim xizmatlari mualliflar uchun asosiy daromad manbaiga aylangan¹³. Bu tendensiya kreativ sohalarining raqamli iqtisodiyotga chuqur integratsiyalashayotganini ko'rsatadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) tomonidan o'tkazilgan "The Future of Work in the Arts and Entertainment Sector" tadqiqotlari esa madaniy va ijodiy sohalarida ish sharoitlari, informallik darajasi va mehnat huquqlarining muvofiqligini tahlil qilgan hamda decent work tamoyillariga asoslangan siyosat zarurligini ta'kidlagan¹⁴.

Umuman olganda, John Howkins, David Throsby va Richard Florida kabi olimlarning tadqiqotlari, shuningdek, UNESCO, UNCTAD, PwC, CISAC va ILO kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari bir nuqtada tutashadi: kreativ iqtisodiyot iqtisodiy diversifikatsiya, bandlikni kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish va raqamli transformatsiyani tezlashtirishda strategik o'rin tutadi. Biroq, ushbu sohaning to'liq rivojlanishi uchun

1 UNESCO (2022a). Reshaping Policies for Creativity: Addressing Culture as a Global Public Good. UNESCO. Paris.; UNESCO (2023). Available at <https://www.unesco.org/en/articles/promoting-diversity-cultural-expressions-and-creative-economy> (accessed 24 February 2024).

2 OECD (2021). Economic and social impact of cultural and creative sectors

3 International Labour Organization (2023a). The Future of Work in the Arts and Entertainment Sector

4 Creative Economy. Outlook 2024. Technical and statistical report. United Nations. Geneva, 2024

5 PwC (2023). Perspectives from the Global Entertainment & Media Outlook 2023–2027.

6 CISAC (2023). CISAC Global Collections Report 2023. International Confederation of Societies of Authors and Composers

7 John Howkins. The Creative Economy: How People Make Money from Ideas. – London: Penguin Books, 2001. – 288 p.

8 David Throsby. Economics and Culture. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 208 p.

9 Richard Florida. The Rise of the Creative Class. – New York: Basic Books, 2002. – 404 p.

10 UNESCO. Creative Economy Report. – Paris: UNESCO Publishing, 2013. – 198 p.

11 UNCTAD. Creative Economy Outlook 2024: Trends in International Trade in Creative Industries. – Geneva: United Nations, 2024. – 156 p.

12 PwC. Global Entertainment & Media Outlook 2023–2027. – London: PricewaterhouseCoopers, 2023. – 254 p.

13 CISAC. Global Collections Report 2023. – Paris: International Confederation of Societies of Authors and Composers, 2023. – 120 p.

14 International Labour Organization. The Future of Work in the Arts and Entertainment Sector. – Geneva: ILO Publications, 2022. – 112 p.



intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, raqamli infratuzilmani mustahkamlash va malakali ijodkorlar ekotizimini qo'llab-quvvatlash zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning usullari sifatida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, retrospektiv, miqdoriy, tizimli, qiyosiy tahlillar, statistik guruhlashtirish tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kreativ iqtisodiyot COVID-19 pandemiyasi eng salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va tez rivojlanayotgan muhit muammolariga moyil bo'lishiga qaramay, global va mintaqaviy iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Madaniy va ijodiy sohalar har yili global miqyosda qariyb 2,3 trillion AQSH dollari daromad keltiradi, bu esa jahon yalpi ichki mahsulotining (YAIM) 3,1 foizini tashkil qiladi¹⁵. So'nggi ma'lumotlarga ega bo'lgan yirik G-20 iqtisodlari orasida madaniy va ijodiy sohalarining umumiy qo'shilgan qiymatdagi ulushi Meksikadagi 0,7 foizdan Amerika Qo'shma Shtatlarida 3 foizgacha¹⁶ tashkil etadi.

Bundan tashqari, YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, madaniy va ijodiy sohalar global bandlikning 6,2 foizini tashkil qiladi¹⁷. Biroq, mamlakatlarda sezilarli farqlar mavjud. G-20 iqtisodlarida madaniy va ijodiy ishlarning ulushi Turkiyada 1 foiz va Avstraliyada 2,1 foiz orasida¹⁸. Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) modellashtirilgan hisob-kitoblariga ko'ra, san'at va ko'ngilochar sektor global bandlikning 1,4 foizini tashkil qiladi¹⁹.

UNCTAD ning 2024-yilda 36 ta asosan rivojlanayotgan iqtisodiyotni qamrab olgan kreativ iqtisodiyot bo'yicha so'rovi mamlakatlar o'rtasidagi sezilarli farqlarni tasdiqlaydi. O'tgan o'n yillik ma'lumotlari mavjud bo'lgan iqtisodlarda kreativ iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 0,5-7,3 foizini tashkil qiladi va ishchi kuchining 0,5-12,5 foizini ish bilan ta'minlaydi. Biroq, ta'riflar (ya'ni, madaniyat, madaniy va ijodiy sohalar, kreativ iqtisodiyot), o'lchanayotgan narsa (ya'ni, YAIMga qo'shgan hissasi yoki qo'shilgan qiymat) va ma'lumot yillaridagi farqlar tufayli ma'lumotlarni solishtirish mumkin emas (1-jadval).

1-jadval. Jahondagi mamlakatlarda kreativ iqtisodiyotni rivojlanishi bo'yicha faktlar va raqamlar²⁰

Xitoy	2022-yilda Xitoyning madaniy sanoati 16,5 trillion yuanga (2,3 trillion AQSH dollari) operatsion daromad keltirdi. Xitoyning madaniy sohadagi sanoati jami 1,3 trillion yuanga (180 milliard dollar) yetdi
Kosta-Rika	2019-yilda Kosta-Rikaning madaniy sektori YAIMning 2,1 foizini va umumiy bandlikning 2,1 foizini tashkil etdi.
Dominika Respublikasi	2014-yilda madaniyat va ijodiy sohalarida 468 324 kishi ishlagan, bu umumiy rasmiy va norasmiy ishchi kuchining qariyb 12,5 foizini tashkil qiladi.
Misr	2020-yilda Misrda madaniy va ijodiy sohalar YAIMning 3 foizini tashkil qildi. 2008-yilda ushbu sohada 2 million kishi ish bilan ta'minlangan.
Indoneziya	2021-yilda Indoneziyaning ijodiy iqtisodiyoti YAIMga qariyb 82 milliard dollar hissa qo'shdi. 2022-yilda ijodiy soha 24 million kishini ish bilan ta'minladi.
Yamayka	2019-yilda film, animatsiya va musiqa sanoati mamlakat yalpi ichki mahsulotining 6,2 foizini tashkil etdi.
Yaponiya	2019-yilda madaniyat Yaponiya yalpi ichki mahsulotining 1,9 foizini tashkil etdi va 1,3 million kishi (ish kuchining 1,9 foizi) ish bilan ta'minlandi.
Mavrikiy	2022-yilda ijodkorlik tarmoqlari yalpi ichki mahsulotning 2,4 foizini tashkil etdi
Chernogoriya	2022-yilda madaniyat va bunyodkorlik sohasi yalpi ichki mahsulotning 3,4 foizini, ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining 10,2 foizini, ishchi kuchining 4,5 foizini tashkil etdi.
Nigeriya	2019-yilda Nigeriyaning ijodiy sohalarida taxminan 3,2 million kishi yoki umumiy bandlikning 6 foizi ishlagan.
Peru	2018-yilda Peruning qisman mualliflik huquqiga asoslangan sanoati milliy qo'shilgan qiymatning 3,8% ni va 703 654 ta ish o'rinlarini (jami bandlikning 4,1%) tashkil etdi.

15 UNESCO (2022a). Reshaping Policies for Creativity: Addressing Culture as a Global Public Good. UNESCO. Paris.; UNESCO (2023). Available at <https://www.unesco.org/en/articles/promoting-diversity-cultural-expressions-and-creative-economy> (accessed 24 February 2024).

16 OECD (2021). Economic and social impact of cultural and creative sectors.

17 UNESCO (2022a). Reshaping Policies for Creativity: Addressing Culture as a Global Public Good. UNESCO. Paris.

18 OECD (2021). Economic and social impact of cultural and creative sectors.

19 International Labour Organization (2023a). The Future of Work in the Arts and Entertainment Sector.

20 Creative Economy. Outlook 2024. Technical and statistical report. United Nations. Geneva, 2024. R.7-8.



Filippin	2022-yilda bunyodkorlik iqtisodiyoti mamlakat yalpi ichki mahsulotining 7,3 foizini tashkil etdi va 7 million kishi ish bilan ta'minlandi.
Koreya Respublikasi	2020-yilda mualliflik huquqi sohalari tomonidan real qo'shilgan qiymat taxminan 160 milliard AQSH dollarini tashkil etdi va bu sohada 2,4 million kishi ish bilan ta'minlandi.
Sloveniya	2017-yilda madaniy va ijodiy sohalar yalpi qo'shilgan qiymatning 3,5 foizini tashkil etdi va ishchi kuchining 7 foizini (51 934 kishi) ish bilan ta'minladi. Ro'yxatdan o'tgan barcha tashkiliy bo'linmalarining 10,5% (24 062) va barcha faol kompaniyalarning 8,4 foizi ushbu sektor hissasiga to'g'ri keladi.
Janubiy Afrika Respublikasi	2020-yilda madaniyat va ijodkorlik sohalarining YAMMga qo'shgan hissasi 3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda ushbu sohada ishchi kuchining 4,1 foizi (679,9 ming ish o'rni ekvivalenti) band bo'lgan.
Buyuk Britaniya	2023-yil iyun oyida 2,5 million kishi ijodkorlik tarmoqlarida band bo'ldi.
O'zbekiston	2014-yilda madaniyat sohalari yalpi ichki mahsulotning 0,5 foizini tashkil etdi. 2020-yilda ijodiy sohalarda ishchi kuchining 0,6 foizi ishlagan

Ko'pgina davlatlar kreativ iqtisodiyotning foydali iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini e'tirof etib, sektorni mustahkamlash uchun maxsus siyosatni amalga oshiradilar. Yaqinda UNCTAD tomonidan o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, har bir ishtirokchi davlat kreativ iqtisodiyotni nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash vazifasi yuklangan kamida bitta, ko'pincha bir nechta vazirlik yoki idoralarga ega. Bundan tashqari, mamlakatlarning 70 foizdan ortig'i kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan milliy reja, strategiya yoki siyosatni amalga oshirdi.

Kreativ sohalar haqidagi global ma'lumotlar va tadqiqotlar kamdan-kam uchraydi, chunki ma'lumotlar ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda yetishmaydi. PwC kompaniyasining 2023-2027-yillar uchun Global Entertainment and Media Outlook²¹ hisoboti keng qamrovli tadqiqotlar qatoriga kiradi va u barcha qit'alardagi 60 ta iqtisodiyotni, jumladan, 33 ta rivojlanayotgan iqtisodiyotni qamrab oladi. Ushbu hisobotga ko'ra, kreativ iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan global ko'ngilochar va media sanoatining yillik o'sishi 2021-yildan beri sekinlashgan bo'lsa-da, u asosan raqamli xizmatlardan keladigan umumiy barqaror global daromad o'sishini saqlab kelmoqda (1-rasm)²².



1-rasm. Ko'ngilochar va ommaviy axborot vositalaridan global daromad²³ (mlrd.AQSH doll.)

Sanoat daromadlaridan tashqari, jamoaviy boshqaruv tashkilotlari (JBT, yoki huquq egalari nomidan mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni boshqaruvchi tashkilotlar) ma'lumotlari ham butun dunyo bo'ylab ijodkorlar o'z ishlaridan (ya'ni, musiqa, audiovizual, tasviriy san'at, adabiyot va drama) qanday pul topishlari

21 PwC (2023). Perspectives from the Global Entertainment & Media Outlook 2023–2027.

22 O'sha yerda

23 Creative Economy. Outlook 2024. Technical and statistical report. United Nations. Geneva, 2024. R.8.

haqida foydali ma'lumot berishi mumkin. Xalqaro Mualliflar va Bastakorlar Jamiyatlari Konfederatsiyasining (CISAC) 116 ta iqtisodidagi 225 JBTni birlashtirgan so'nggi hisobotiga ko'ra, 2022-yilda jahon royalti yig'implari rekord darajadagi 13,4 milliard AQSH dollariga yetgan va o'tgan yilga nisbatan 26,7 foizga o'sgan. Raqamli tarixda birinchi marta mualliflar uchun royalti yig'ishning eng katta manbai bo'ldi, bu umumiy to'plamlarning 35 foizini tashkil etdi, bu esa obuna oqimining doimiy o'sishi bilan bog'liq. CISAC ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa yig'implarning eng yuqori ulushiga ega bo'lib, jami 54,8 foizni tashkil etadi, undan keyin Shimoliy Amerika (24,5 foiz), Osiyo Tinch okeani (15 foiz), Lotin Amerikasi va Karib dengizi (5,1 foiz) va Afrika (0,6 foiz)²⁴.

Raqamli muhitda royalti yig'ish uchun qulay sharoitlar mavjud bo'lsa, bu jarayonning rivojlanish tendensiyalari ayrim rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda katta imkoniyatlarni namoyon etmoqda. Rivojlangan iqtisodiyotlar hanzu royalti yig'implarida ustunlik qilayotgan bo'lsa-da, eng tez o'sish sur'atlari rivojlanayotgan mintaqalarga xosdir. Masalan, 2022-yilda Lotin Amerikasi eng tez o'sayotgan mintaqaga bo'lib, yillik o'sish 66,1 foizni tashkil etgan. Shuningdek, tobora ko'payib borayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarda — xususan, Indoneziya, Meksika, Filippin, Tailand, Vyetnam va boshqalarda — raqamli yig'implar asosiy manbaga aylanib, geometrik progressiyada o'sishda davom etmoqda²⁵.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ iqtisodiyot nafaqat madaniy qadriyatlarni rivojlantirish, balki global iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va innovatsiyalarni rag'batlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. U raqamli texnologiyalar, ijodkorlik va intellektual kapitalning uyg'unlashuvi natijasida yangi iqtisodiy model sifatida shakllanmoqda. Iqtisodiy diversifikatsiya, eksport salohiyatining kengayishi hamda xizmatlar sektorining rivojlanishi orqali u barqaror o'sishning strategik yo'nalishiga aylanmoqda.

Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda kreativ sohalar uchun institutsional va statistik bazaning yetarli emasligi, malakali kadrlar tanqisligi hamda infratuzilmaning sustligi ushbu sektorning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishni cheklamoqda. Shu bois, kreativ iqtisodiyotning yanada rivojlanishi uchun davlat siyosatida raqamli infratuzilmani kengaytirish, mualliflik huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, ijodiy startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim. Bu chora-tadbirlar kreativ iqtisodiyotning O'zbekistonda va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror o'sish va raqobatbardoshlik omiliga aylanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO (2022a). Reshaping Policies for Creativity: Addressing Culture as a Global Public Good. UNESCO. Paris.;
2. UNESCO (2023). Available at <https://www.unesco.org/en/articles/promoting-diversity-cultural-expressions-and-creative-economy> (accessed 24 February 2024).
3. OECD (2021). Economic and social impact of cultural and creative sectors.
4. International Labour Organization (2023a). The Future of Work in the Arts and Entertainment Sector.
5. Creative Economy. Outlook 2024. Technical and statistical report. United Nations. Geneva, 2024.
6. PwC (2023). Perspectives from the Global Entertainment & Media Outlook 2023–2027.
7. CISAC (2023). CISAC Global Collections Report 2023. International Confederation of Societies of Authors and Composers.
8. John Howkins. The Creative Economy: How People Make Money from Ideas. – London: Penguin Books, 2001. – 288 p.
9. David Throsby. Economics and Culture. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 208 p.
10. Richard Florida. The Rise of the Creative Class. – New York: Basic Books, 2002. – 404 p.

²⁴ CISAC (2023). CISAC Global Collections Report 2023. International Confederation of Societies of Authors and Composers.

²⁵ O'sha yerda

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100